

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Qashqadaryo viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 52 092,0 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 51 099,7 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 868,4 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 123,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tumanlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (5 229,6 mlrd. so'm), Qamashi (4 673,2 mlrd. so'm), Kitob (4 484,6 mlrd. so'm), Kasbi (4 472,2 mlrd. so'm), Qarshi (3 938,7 mlrd. so'm), Mirishkor (3 665,8 mlrd. so'm), Nishon (3 661,9 mlrd. so'm), Yakkabog' (3 622,7 mlrd. so'm), Chiroqchi (3 409,5 mlrd. so'm), G'uzor (3 323,8 mlrd. so'm), Shahrisabz (3 170,4 mlrd. so'm), Koson (3 329,9 mlrd so'm), Kitob (3 269,5 mlrd so'm), Qamashi (3 193,3 mlrd so'm), Yakkabog' (2 861,3 mlrd so'm), Kasbi (2 711,7 mlrd so'm), Qarshi (2 541,8 mlrd so'm),



Shahrisabz (2 461,2 mlrd so'm), Chiroqshi (2 458,7 mlrd so'm), va G'uzor (2 449,8 mlrd so'm), tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (383,5 mlrd so'm), va Shahrisabz shaharni (391,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	52092,0	104,3
Qarshi shahar	383,5	101,9
Shahrisabz shahar	391,0	100,7
G'uzor tumani	3323,8	104,0
Dehqonobod tumani	2152,9	101,3
Qamashi tumani	4673,2	102,7
Qarshi tumani	3938,7	103,2
Koson tumani	5229,6	107,0
Kitob tumani	4484,6	103,3
Mirishkor tumani	3665,8	109,2
Muborak tumani	2628,5	106,9
Nishon tumani	3661,9	101,9
Kasbi tumani	4472,2	102,8
Ko'kdala tumani	2883,7	107,9
Chiroqchi tumani	3409,5	104,4
Shahrisabz tumani	3170,4	104,0
Yakkabog' tumani	3622,7	102,8

Tumanlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (109,2 %), Ko'kdala (107,9 %), Koson (107,0 %), Muborak (106,9 %), Chiroqchi (104,4 %) G'uzor (104,0 %), va Shahrisabz (104,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan Shahrisabz shahar (100,7 %), Dehqonobod (101,3 %), Qarshi shahar (101,9 %), tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 49 950,0 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 18294,6 mlrd so'mni (109,4 %), chorvachilik mahsulotlari 31 655,4 mlrd so'mni (100,6 %) tashkil qildi.

Tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Koson (5 108,1 mlrd so'm), Qamashi (4 572,3 mlrd so'm), Kasbi (4 255,8 mlrd so'm), Kitob (4 102,3 mlrd so'm), Qarshi (3 834,8 mlrd so'm), Mirishkor (3 510,1 mlrd so'm), Nishon (3 451,4 mlrd so'm), Yakkabog' (3 446,0 mlrd so'm) va Chiroqshi (3 340,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Qarshi shahar (340,4 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (387,8 mlrd so'm) va Dehqonobod tumanini (2 135,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (109,0 %), Ko'kdala (108,2%), Koson (106,6 %), Muborak (105,7 %), Qamashi (104,6 %), Yakkabog' (104,2 %), Chiroqshi (104,4 %), Shahrisabz (104,2 %), va G'uzor (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Shahrisabz shahar (100,3 %), Qarshi shahar (101,6 %), va Dehqonobod (101,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,2 % i fermer xo'jaliklariga, 6,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Tumanlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Qamashi (3 276,9 mlrd so'm), Koson (3 178,5 mlrd so'm), Chiroqchi (2 474,4 mlrd so'm), Qarshi (2 458,1 mlrd so'm), G'uzor (2 425,7 mlrd so'm), va Kasbi (2 315,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Shahrisabz (1 788,7 mlrd so'm), Nishon (1 662,7 mlrd so'm), Muborak (1 573,6 mlrd so'm), Qarshi shahar (308,7 mlrd so'm) va Shahrisabz shahar (264,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz shahar (113,3 %), Qarshi (106,4 %), Yakkabog' (106,4 %), Shahrisabz (106,3%), G'uzor (106,0 %), Muborak (105,9 %), va Mirishkor (105,8 %), tumanlarida qayd etildi. Koson (104,6 %), Dehqonobod (103,9%), Chiroqchi (103,1%), va Qarshi shahar (91,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 347,0 ming tonna go'sht, 1 394,5 ming tonna sut, 583,8 mln dona tuxum, 297,3 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 4,6 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni, sog'ib olingan sut – 101,1 % ni, olingan tuxum – 100,7 % ni, olingan qorako'l teri – 105,4 % ni hamda ovlangan baliqlar – 109,5 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 4,1 % i fermer xo'jaliklari, 94,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	347,0	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	15,3	116,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	322,1	99,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,6	120,9
	1394,9	101,1
Sut, ming tonna		
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	57,6	110,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1319,2	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,1	128,5
Tuxum, mln. dona	583,8	100,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	39,9	121,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	365,7	102,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	178,2	93,2
Jun, tonna	9275	104,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	841	118,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7883	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	551	112,9
Qorako'l teri, ming dona	297,3	105,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24,6	154,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	234,6	102,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	38,1	104,7
Baliq, ming tonna	4,6	109,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,8	125,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,4	165,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,4	81,3



Shu bilan birga, olingan tuxumning 6,8 % i fermer xo'jaliklariga, 62,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 30,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 8,3 % i fermer xo'jaliklariga, 78,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 60,6 % i fermer xo'jaliklariga, 8,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Tumanlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Qashqadaryo viloyati	347049	1394954	583782
Qarshi shahar	4236	2124	24747
Shahrisabz shahar	2381	17734	2776
G'uzor tumani	29958	73081	34911
Dehqonobod tumani	25346	51358	14425
Qamashi tumani	39202	110179	60719
Qarshi tumani	26321	113693	49577
Koson tumani	28487	208603	51418
Kitob tumani	21515	127489	31878
Mirishkor tumani	21423	70174	38561
Muborak tumani	17742	65817	22280
Nishon tumani	20240	54188	17043
Kasbi tumani	23688	121062	28593
Ko'kdala tumani	21120	81671	44635
Chiroqchi tumani	28869	92794	28892
Shahrisabz tumani	16152	106752	87705
Yakkabog' tumani	20369	98235	45622



Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Tumanlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Kasbi (1 940,1 mlrd so'm), Koson (1 929,5 mlrd so'm), Kitob (1 886,0 mlrd so'm), Nishon (1 788,7 mlrd so'm), Mirishkor (1 655,3 mlrd so'm), Yakkabog' (1 472,2 mlrd so'm), Qarshi (1 376,7 mlrd so'm), Qamashi (1 295,4 mlrd so'm) va Shahrisabz (1 168,3 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega tumanlarga Dehqonobod tumanini (164,4 mlrd so'm), Shahrisabz shahar (123,0 mlrd so'm) va Qarshi shaharni (31,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Dehqonobod (124,6 %), Ko'kdala (110,2 %), va Yakkabog' (110,2 %) tumanlarida qayd etildi. Nishon (99,8 %), Muborak (99,8 %), Kasbi (97,8 %), Chiroqchi (97,2 %), Mirishkor (96,6 %), va Qarshi (94,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Tumanlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	663909	102,4
Qarshi shahar	2952	108,7
Shahrisabz shahar	7621	106,1
G'uzor tumani	25744	102,7
Dehqonobod tumani	4517	100,1
Qamashi tumani	57402	101,4
Qarshi tumani	54575	100,1
Koson tumani	73808	101,2
Kitob tumani	83204	101,9
Mirishkor tumani	39051	100,1
Muborak tumani	18250	100,7
Nishon tumani	55936	101,3
Kasbi tumani	45379	103,9
Ko'kdala tumani	38292	101,1
Chiroqchi tumani	32858	103,8
Shahrisabz tumani	62487	108,6
Yakkabog' tumani	61833	102,8



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Shahrisabz (13,2 %), Kitob tumani (12,7 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Shahrisabz shahar (12,3 %), Yakkabog' (11,2 %) va Nishon (10,1 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Dehqonobod (1,3 %), Muborak (4,7 %) va Qarshi shaharda (5,4 %) kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz (108,6 %), Qarshi shahar (107,8 %), Shahrisabz shahar (106,1 %), Kasbi (103,9 %), Chiroqchi (103,8 %), va Yakkabog' (102,8 tumanida (111,9 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026- yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 795,6 ming boshga yetdi, (2025- yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 598,7 ming boshga (2,7 % ga ko'p), qo'y va echkilar 5 231,9 ming boshga (2,2 % ga ko'p), parrandalar 7 404,6 ming boshga (4,7 % ga ko'p) yetdi.

2026- yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 795,6	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	164,4	115,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 590,6	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	40,6	115,6
shundan sigirlar	598,7	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	79,0	125,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	502,1	99,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,6	119,4
Qo'y va echkilar	5 231,9	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	610,8	113,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 214,3	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	406,8	109,4
Otlar	43,3	112,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	8,7	114,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	31,4	111,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,2	117,0
Parrandalar	7 404,6	104,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	963,0	116,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4 239,8	100,3



qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar

2 201,8

109,0

2026- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 88,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 13,2 % i fermer xo'jaliklariga, 83,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,7 % i fermer xo'jaliklariga, 80,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 13,0 % i fermer xo'jaliklariga, 57,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026- yilning 1-yanvar holatiga tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Qashqadaryo viloyati	1795646	5231919	7404624
Qarshi shahar	6155	16147	222941
Shahrisabz shahar	27880	20569	195910
G'uzor tumani	101418	631938	528245
Dehqonobod tumani	91517	754344	189173
Qamashi tumani	123566	278207	504090
Qarshi tumani	167426	234235	500108
Koson tumani	191143	640638	613904
Kitob tumani	144603	158362	645112
Mirishkor tumani	100564	444433	528158
Muborak tumani	116638	548707	246301
Nishon tumani	134741	329954	348855
Kasbi tumani	154313	203378	239947
Ko'kdala tumani	100787	286627	535335
Chiroqchi tumani	136923	412052	643607
Shahrisabz tumani	92199	107413	828275
Yakkabog' tumani	105773	164915	634663



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
B. O'rinov
75 221-44-36 (1710)

Manzil:
Qarshi sh, Mustaqillik shoh
ko'chasi 2b
